




## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga etkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 585,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 546,4 mln. AQSh dollariga yoki 26,8 % ga ko‘paydi.






TSAda eksport hajmi 967,6 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 135,5 %) va import hajmi 1 618,2 mln. AQSh dollariga (o‘zgarish sur‘ati – 122,1 %) yetdi. Hisobot davrida 650,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2020- yil yanvar-iyungacha nisbatan, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Turkiya	551,4	449,6	101,8	21,3
Rossiya Federatsiyasi	544,8	141,4	403,4	21,1
Qozog'iston	492,4	90,9	401,5	19,0
Xitoy	278,2	44,8	233,4	10,8
Koreya Respublikasi	84,0	7,5	76,5	3,2
Braziliya	79,6	7,0	72,6	3,1
Ukraina	73,9	0,0	73,9	2,9
Germaniya	50,3	22,2	28,1	1,9
Afg'oniston	42,3	7,8	34,5	1,6
Italiya	39,8	39,8	0,0	1,5
Tojikiston	31,9	4,5	27,4	1,2
Qirg'iz Respublikasi	31,1	28,7	2,4	1,2
Qatar	30,4	19,7	10,7	1,2
Niderlandiya	28,8	28,8	0,0	1,1
Irlandiya	19,1	12,0	7,1	0,7
Singapur	17,2	0,0	17,2	0,7
Hindiston	14,1	13,6	0,5	0,5
Ozarbajon	13,9	3,9	10,0	0,5
Litva	13,6	2,8	10,8	0,5
Polsha	13,2	0,3	12,9	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,3 %ni hamda o‘shish sur‘ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 131,3 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilning yanvar- iyun oylarida 53,4 %ni, 2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 51,7 %ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 122,8 %ni tashkil etdi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-iyun, % hisobida)






## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qirg'iziston va Tojikiston bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Afg'oniston, Singapur va Qatar bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan 967,6 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 135,5 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,4 %), turli xil tayyor buyumlar (7,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,3 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,1 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,6 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Xizmatlar
- Ichimliklar va tamaki
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	967,6	315,6	652,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	110,0	66,4	43,6	11,4	21,0	6,7
Ichimliklar va tamaki	1,2	1,1	0,1	0,1	0,4	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	41,8	24,4	17,4	4,3	7,7	2,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,9	0,1	0,8	0,1	0,02	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	29,8	19,0	10,8	3,1	6,0	1,7
Sanoat tovarlari	691,4	125,5	565,9	71,5	39,8	86,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	15,5	9,0	6,5	1,6	2,8	1,0
Turli xil tayyor buyumlar	72,3	69,5	2,8	7,5	22,0	0,4
Xizmatlar	4,7	0,6	4,1	0,5	0,2	0,6






## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-iyun)

2021-yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning mos davriga nisbatan, hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	135,5	127,4	139,8
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	112,8	96,7	151,5
Ichimliklar va tamaki	94,1	103,6	33,8
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	96,2	134,6	68,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	93,3	29,7	106,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	139,2	125,8	171,1
Sanoat tovarlari	144,1	142,9	144,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	103,8	118,3	88,7
Turli xil tayyor buyumlar	142,7	143,3	129,5
Xizmatlar	105,5	94,1	107,5



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyun)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Qatar va Tojikiston hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 824,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,1 %ini tashkil qiladi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 80,6 mln. dollar qiymat ega 178,5 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 14,5 % o'sgan, naturada – 28,5 % ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 53,9 mln. AQSh dollariga teng 145,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 40,4 % ga o'sgan), shuningdek 21,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 27,0 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 80,4 %ga teng).

### 2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
27,0 ming  
tonna  
21,7 mln.  
AQSH dollari



Uzum  
1,7 ming  
tonna  
1,7 mln.  
AQSH dollari



Yeryong'oqlar  
2,0 ming  
tonna  
2,5 mln.  
AQSH dollari



Sabzavotlar  
145,2 ming  
tonna  
53,9 mln.  
AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 77,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 8,0 %ini tashkil qiladi.




## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyun oylari mobaynida import hajmi 1618,2 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 122,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (28,1 %), sanoat tovarlari (17,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (20,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	1618,2	932,2	686,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	222,5	105,3	117,2	13,8	11,3	17,1
Ichimliklar va tamaki	4,6	4,4	0,2	0,3	0,5	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	335,7	320,8	14,9	20,7	34,4	2,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	65,1	64,4	0,7	4,0	6,9	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	44,1	40,0	4,1	2,7	4,3	0,6
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	116,7	33,3	83,4	7,2	3,6	12,2
Sanoat tovarlari	279,7	200,7	79,0	17,3	21,5	11,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	455,3	142,3	313,0	28,1	15,3	45,6
Turli xil tayyor buyumlar	68,9	14,7	54,2	4,3	1,6	7,9
Boshqa tovarlar	7,7	3,7	4,0	0,5	0,4	0,6
Xizmatlar	17,9	2,6	15,3	1,1	0,3	2,2

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (34,4 %) va sanoat tovarlari (21,5 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (45,6 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-iyun, % hisobida )

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	122,1	132,7	110,1
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	136,6	79,7	3,8 m.
Ichimliklar va tamaki	2,3 m.	2,4 m.	103,9
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	145,3	158,6	51,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	111,0	110,6	166,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	108,0	126,8	44,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	128,3	141,1	123,7
Sanoat tovarlari	118,4	131,6	94,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	112,0	176,3	96,0
Turli xil tayyor buyumlar	105,2	113,5	103,2
Boshqa tovarlar	96,1	104,4	89,5
Xizmatlar	80,0	87,0	78,9





## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyun)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Braziliya va Belorus hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1363,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,2 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:(71) 202-86-59